

## QUYI AMUDARYO HUDUDI AHOLISINING TEMIR DAVRI MUNCHOQLARI XUSUSIDA

**Annotatsiya.** Maqolada Janubiy Orolbo'yi hududi o'troq aholining zargarlik san'atining miloddan avvalgi 1-ming yillik boshlari va o'rtalari munchoqlari tarixi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Itina M.A, Vaynberg B.I, Vorob'yeva M.G, Asqarov A, Abdullayev B, Yakka Parson-2, Quysisoy-3, Dingilja, Jarqo 'ton, slindr, shar, bank, kvadrat, munchoq.

## ОСОБЕННОСТИ БУС ЖЕЛЕЗНОГО ВЕКА ЖИТЕЛЕЙ РАЙОНА НИЖНЕГО ТЕЧЕНИЯ АМУДАРЬИ

**Аннотация.** В статье анализируются истории ювелирных изделий-бусы оседлых земледельцев населения в начале и середине I тыс.-я до н.э. Низовья Приаралья.

**Ключевые слова:** Итина М.А, Вайнберг Б.И, Воробьева М.Г, Аскаров А, Абдуллаев Б, Якка-Парсон-2, Куйисай-3, Дингильдже, Джаркутан, цилиндр, шар, банк, квадрат, бусы.

## ON THE IRON AGE BEADS OF THE POPULATION OF THE LOWER AMU DARYA REGION

**Annotation.** The article analyzes the history of the beads of the beginning and middle of the 1st millennium BC of the jewelry art of the southern insular region of the sedentary population.

**Keywords:** Itina M.A, Weinberg B.I, Vorobyeva M. Annotation. The article analyzes the history of the beads of the beginning and middle of the 1st millennium

O'zbekistonning tarixiy-geografik hudularida turar-joylarda o'rnatilgan aholining bronza davri aholisi xo'jaligining noteks rivojlanish xususiyatlarini temir davrida aks etishini ikki tipga ajratish mumkin:

1-tip Ustyurt, Quyi Amudaryo, Zarafshon vodiysi va Toshkent vohasi turar-joylari yarim yerto'la, kulolchilik ashyolari qo'lda tayyorlanishi, Uy chorvachiligi "Qayr" dehqonchiligi, tosh, suyak qurollari.

2-tip Farg'ona vodiysi va Surxondaryo viloyati Sherobod voha-tuman hududlari, o'troq hayot, sug'orma dehqonchilik, shaharsozlik madaniyati asoslari, kulolchilik ashyolari qo'lda va charx texnologiyasida mehnat anjomlari tosh, bronza, mis.

Mazkur maqolada birinchi tipda o'rin olgan Quyi Amudaryo hududida temir davri turar-joylarida istiqomat qilgan aholining kundalik hayotlarida bezalishini aks ettirgan munchoqlar tarixini yoritish inobatga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili [Literature review]. Xorazm ekspeditsiyasi hodimlari Janubiy Orolbo'yi hududida aholi tomonidan qoldirilgan turar-joylarda keng qamrovli tarzda amalga oshirilgan qazishma ishlar natijalarini inobatga olib, temir davrini ikki tarixiy davrga ajratish mumkin:

1-tarixiy davr bronza davri oxiri –ilk temir davri

2-temir davri so'nggi bosqichi (mil.avv VI asr so'nggi choragi V asr)

M.A.Itinaning Janubiy Oqchadaryo hududida Yakka Parson-2 manzilgohida (2.5.gektar, yarim yerto'la, kvadrat shaklda) qazishma ishlari natijasida 20 ta uy-xonalari qoldiqlarida qazishma ishlari natijasida kulolchilik ashyolari bilan birga bronzadan qilingan slindr va shar

58 shaklida munchoqlar kundalik faoliyatlarida aholi omonidan ishlatilgan mil.avv. IX-VIII asrga oid bo'lgan [1-C. 122]

Yakka Parson-2 munchoqlari (15,16)

B.I.Vaynberg Amudaryoning Davdon irmog'i quyi havzasi hududida Quysisoy-2 manzilgohi aholisi tomonidan qoldirilgan qabrda amalga oshirilgan tozalash ishlari natijasida marhum tamonidan kundalik turmush tarzida ishlatilgan bronzadan yasalgan slindr va shar shaklida olingan munchoqlar mil.avv. VII-VI asrga mansub bo'lgan [2-C. 29-30].

Quysisoy munchoqlari

M.G.Vorobyova Amudaryo o'ng sohili hududida Kaltaminor sug'orilish inshoati adog'ida barpo qilingan Dingil'ja qishlog'i paxsa va kvadrat g'ishtdan tiklangan. Uy-xonalarida kundalik faoliyatlarini olib borgan aholi bronzadan qilingan munchoqlar qoldig'i olingan. Yodgorlik topografik jihatidan, hajmi jihatdan maqomga ega bo'lgan qishloqsifatida aholiga xizmat qilgan. Uy-xonolari biridan bronzadan qilingan 2 dona munchoq qoldig'i olingan. Ularning shakllanish jihatidan ikki tipga bo'lingan:

1-tip yirik bank shaklida munchoq (ris 55, 24)

2-tip kichik shaklda disk shaklida (5 ris 55.25) [3-C 175]

Yakka Parson-2 manzilgohida o'mashib, sun'iy sug'orma dehqonchilik (bolg'a qoldiqlari olingan) madaniyatini olib borgan aholining bronzadan yasalgan (8-9 uy-xonolari ustaxonalari bo'lgan) munchoqlarga o'xshash Shimoliy Baqtriyada Jarqo'ton yodgorligi aholisi qabr mozorlari olingan. Jarqo'tonlik zargar hunarmandlar tevarak-atrofdagi foydali qazishmalardan, noyob toshlardan, ya'ni lazurit, feruza, mramor kalsit kabi silindr, kvadrat, shar shaklida munchoqlar tayyorlangan [4 C 20] rasm

Dingilja munchoqlari

Tadqiqot metodologiyasi quyidagilar: ob'yektivlik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, bahs, umumlashtirish, mantiqiy xulosa, arxeologiya, etnografiya, geografiya va etnodemografiya ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar [Analysis and results] O'tgan asr adabiyotlari va mustaqillik yillari nashrlarida qayd qilingan tarixiy ma'lumotlar asosida temir davri aholisining zargarlik san'atining munchoqlarni tayyorlash texnologiyasida o'zgarishlar tahlil qilindi. Shu ma'noda ajdodlarimizning munchoqlar texnologiyasida yuz bergan xususiyatlarni ikki tarixiy davrga ajratish imkoniyati mavjud.

1-tarixiy davr mil.avv. X-VI asr ikkinchi yarmi

2-tarixiy davr mil.avv. VI asr oxiri V asr.

Birinchi tarixiy davrga Janubiy Oqchadaryo havzasi geografik holatini aks ettirgan Yakka Parson-2 manzilgohi aholisi tosh, suyak va bronzadan qilingan munchoqlardan foydalanilgan.

Ikkinchi tarixiy davrda Janubiy Orolbo'yi hududida loy binokorligi bilimi asosida qurilgan. Bozorqal'a, Dingilja, Ichanqal'a, Xozarasp, Ko'zaliqir, Qang'qaqal'a aholisi tomonidan kundalik faoliyatlarida munchoqlar, zeb-ziynat sifatida qo'llanilishi tahlil qilingan. Shu asosda quyidagi natijalar izohlandi:

- Janubiy Oqchadaryo havzasida bronza davriga mansub Tozabog'yob va Andropova qabilalari omuxtalashishi natijasida tarkib topgan Amirobod madaniyati vakillari tomonidan olib borilgan zargarlik san'ati munchoqlari temir davri munchoqlar bronzadan qilingan.

Xulosa va takliflar quyidagilardan iborat:

- Bronza davri zargarlik san'atida munchoqlarning ajdodlarimiz kundalik faoliyatlarida davom etgan.

- Munchoqlar tayyorlanishida bronza ashyosi asos bo'lgan.

- Munchoqlarning texnologiyasida slindr, yarim slindr, aylana shakllari zeb-ziynatda qo'llanilish ustunlik qilgan.

Quyidagi takliflar ilgari surildi:

1. Janubiy Orolbo'yi neolit davri urug'-jamoalarining zargarlik san'ati tarixi hozirgi davr tarixiy ildizlarini o'rganish:

2. Janubiy Orolbo'yi aholisi bronza va temir davri aholisini munchoqlar umumjihatlari, o'ziga xos xususiyatlarini izohlash:
3. Temir davri munchoqlar xususiyatlarini jadvallar asosida yoritish kabi tahlillar izohlandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Итина М.А. Поселения Якке-Парсан-2 (Раскопки 1958-1959 гг) / МХЭ,М: Наука, 1963 №4 – рис. 13. 12
2. Вайнберг Б.М. Памятники Куюсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма – М: Наука, 1979.
3. Воробьева М.Г Дингильдже. Усадьба середины I тыс.я до.н.э.в Древнем Хорезме - М: Наука, 1973
4. Аскарлов А. Абдуллаев Б Джаркутан //К проблемы протогородской - цивилизации на юге Узбекистане-Ташкент “Фан”, 1983